

Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal



ISBN-2181-0281
2181 0282

SOHBQIRON YULDUZI

Соҳибқирон юлдози

№3 (49) 2022 йил

“Bizkim-mulki Turon, amiri Turkistonmiz, bizkim - millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i Turkning bosh bo‘g‘inimiz!”

Sohibqiron Amir Temur



SOHIBQIRON YULDUZI

ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

академик Акмал Сайдов
академик Анатолий Сагдулаев
академик Диором Юсупова
Сирожиддин Сайид
проф. Абдураҳим Эркаев
проф. Қаҳрамон Раҳабов
проф. Юлдуз Эргашева
проф. Баҳодир Эшов
филол.ф.д. Нафас Шодмонов
Тўлқин Ҳайит
т.ф.д. Г.Муминова
проф. Шокир Гаффоров
проф. Ахмад Чориев
филол.ф.д. Ҳужамурод Йабборов
филол.ф.д. Дамин Тўраев
т.фи.доц. Акрам Ҳасанов
т.фи.доц. Фахридин Раҳмонов

Бош мұхаррір:

Очил Бўриев

Наушр учун масъуллар:

Равшан Тўхтамишев

Илҳом Тогаев

Саҳифаловчи:

Баҳодир Мусаев

МУАССИС:

SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J.

Қашқадарё вилоят матбуот ва ахборот бошқармасида 2012 йил 12 марта
14-076 рақами билан рўйхатга олинган.
Журнал йилда 4 маротаба чоп этилади.
Журналдан кўчирма олингандага манба
қайд этилиши шарт.

Манзилимиз:

Қарши шаҳри, Мустақиллик шоҳ кўчаси,
2-йй. Телефон: 221-13-78. 91.466-80-32
Теришга 25.07.2022 йилда берилди.
Босишга 12.08.2022 йилда руҳсат
етилди. 31.08.2022 йилда босилди.
Бичими 70x100 1/16. 8,0 босма табоқ.
Адади 100 нусха. Буюртма № 511
Журнал «Photo Express» ишлаб чиқарип
корхонаси босмахонасида чоп этилди.

Босмахона манзили:

Қарши шаҳри Мустақиллик шоҳ кўчаси, 22-йй.
Электрон манзилимиз:
sohibqiron_jurnali@mail.ru

2022 йил № 3 (49)



2022 йил «Инсон қадрини
улуғлаш ва фаол маҳалла
йили»

Журнал таниқли шоир, маънавият
жонкуяри (марҳум) Исломӣ Тўхтамишев
ташаббуси билан ташкил этилган.

2010 йилдан чоп этилади.

Журнал Узбекистон Республикаси Вазирлар
Маҳкамаси ҳузуридаги Олий Аттестация
Комиссияси раёсатининг 2018 йил
29 декабрдаги 260/7-сонли қарори билан
«Тарих» фанлари бўйича илмий журнallар
рўйхатига киритилган.



ТАДҚИҚОТЛАР

Мурод АЛЛАЕВ, MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI TARIXIY - ME'MORIY OBIDALARINING TA'MIRLANISHI.....	131
Фозил Қўйбоқаров, O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING HOLATI VA YUTUQLARI.....	136
Фарҳоджон Исматуллаев, ЎЗБЕКИСТОН - ЕВРОПА ИТТИФОҚИ: ЎЗАРО МАНФААТДОРЛИК, ПРАГМАТИЗМ ВА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ ҲАМКОРЛИК.....	140
Авазов Фарруҳ Азamat ўғли, СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ҚИЛИЧЛАРИ.....	151
Shoyimov Sanjarbek Saidmurod o'g'li AFG'ONISTONNING GEOGRAFIK HUDUDI, ETNIK TARKIBI VA PUSHTUNLAR.....	155
Izzatova Aziza, Hamroyeva Ro'zgul, O'ZBEKISTONNING ISPANIYA BILAN MADANIY SOHALARDAGI HAMKORLIK ALOQALARI....	159
Kamoliddinov Farrux, TARIXIY MANBALADA XIVA XONLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI HAMDA TARIXNAVISLIK MASALALARIGA BA'ZI BIR QARASHLAR.....	163
Pozilova Xumora Oqilbek qizi, TIRNAB BEZAK BERILGAN SOPOL BUYUMLARNING QADIMGI FARG'ONA HUNARMAND-CHILIGIDAGI AHAMIYATI.....	168
Ўқтамбек Султонов, ТЕМУРИЙ ШОҲРУХ МИРЗО ВА ҚОРАЧИҚ ВАҚФНОМАСИ.....	175
Зияев Фарход, ЖАҲОН ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИДА ГЛОБАЛЛАШУВ ВА УНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДАГИ ТАЪСИРИ.....	180
Адилов Фарход, ЎЗБЕКИСТОН ВА ОЗАРБАЙЖОННИНГ ИЛМИЙ АЛОҚАЛАР ТАРИХИ (1945-1991 ЙИЛЛАР МИСОЛИДА).....	184
Т.Т.Алиев, СТАНОВЛЕНИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ.....	187
Ҳамидилло Лутфилаев, ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ТАМАДДУНИГА АСОС БЎЛГАН АЙРИМ МАНБАЛАР ХУСУСИДА.....	191



O'ZBEKISTONNING ISPAÑIYA BILAN MADANIY SOHALARDAGI HAMKORLIK ALOQALARI

Izzatova Aziza Ulug'bekovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Hamroyeva Ro'zigul Fayzullo qizi
Andijon viloyati Xonabod shahar 2-umumta'lif maktabi

Kalit so'zlar: Madaniy va gumanitar hamkorlik, do'stlik aloqalari, diplomatik aloqalar, madaniyat va san'at.

Davlatimiz rahbari tomonidan, tashqi siyosiy faoliyatimizning ustuvor tamoyillaridan biri deb, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahoning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy yondashuv asosida, ikki hamda ko'p tomonlama, barcha yo'nalishlardagi munosabatlarimizni rivojlantirish va kengaytirish belgilangan[1].

Shuningdek, O'zbekiston va Ispaniya o'rtaida diplomatik asosdagi hamkorlik aloqalari 1992-yil 17-martda o'rnatildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda ikki davlat o'rtaida, hamkorlikdagi madaniy aloqalar o'rnatildi. Arxiv ma'lumotlariga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining quyidagi ma'lumotlarini keltirish mumkin: "Ispaniya bilan madaniy hamkorlik hozirgi paytda shaxsiy taxminlar, hukumat, jamoat tashkilotlari va muassasalari bilan kelishuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Afsuski, bu aloqalar doimiy emas. 1991 yilda Farg'onan viloyati Toshloq viloyati "Rayhon" xalq ashula va raqs ansamblining solisti Omon Haydarov "Xalqaro Romaria" folklor festivaliga yuborildi. Festivalda havaskor musiqachining chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan maqtov yorlig'i bilan taqdirlandi. O'sha yilning may oyida Toshgos konservatoriyaning fortepiano fakulteti talabasi. M. Ashrafiy S. V. Yudenich. 1994 yilda, Fondning taklifiga binoan. V. Albeniza, V.I. nomidagi Respublika o'rta maxsus musiqa maktab-internati o'qituvchisi. V. A. Uspenskiy S. K. Baxtiyarov ikki hafta davomida Toshkent shahridan kelgan o'qituvchi fondning ta'lif muassasalarida o'tkazilgan mahorat darslarida qatnashdi. Hamkorlikni faollashtirish va kengaytirish uchun tegishli shartnomaviy hujjatni imzolash maqsadga muvofiq bo'lar edi, shu asosda shu va kelgusi yillar uchun madaniy almashinuvning aniq dasturi ishlab chiqilishi mumkin"[2].

Ikki davlat o'rtaida madaniy aloqalar doirasida gumanitar hamkorlik ham rivojlanmoqda. Xususan, 2000 yilda "Klavixo-Amir Temur" Ispaniya-O'zbekiston do'stlik uyushmasi tuzilgan. Mazkur uyushma bilan hamkorlikda 2004-yili

Toshkent va Samarqand shaharlarida Amir Temur davlati bilan Ispaniya Qirolligi o'rtasida diplomatik munosabatlari o'rnatilganligining 600 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tdi, Barselonada Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur "Boburnoma" asari ispan tilida nashr qilindi. 2008-yil iyun oyida Ispaniya Tashqi ishlar vazirligining Osiyo mamlakatlari bilan madaniy aloqalar bo'yicha instituti ("Casa Asia") delegatsiyasi O'zbekistonga keldi. Ushbu tashrifdan ko'zlangan maqsad madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, ko'rgazma, konferensiya va seminarlar tashkil etish orqali Ispaniyada o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy merosini targ'ib qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, oliv o'quv yurtlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdan iborat edi[3].

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi Rayosatining 2018-yil 23-yanvardagi 11-son bayoni bilan tasdiqlangan "2018-yilda Ispaniya Qirolligi bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 30- bandida belgilangan "O'zbekiston-Ispaniya" do'stlik jamiyatini tashkil etish" bo'yicha bir qator ishlar olib borildi[4].

Tashkil etilgan do'stik jamiyatning asosiy maqsadi, O'zbekiston va Ispaniya xalqlari orasidagi madaniy-ma'rifiy, ta'lim-fan sohasidagi aloqlarni ikki davlat o'rtasidagi do'stlik, hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. "O'zbekiston-Ispaniya" do'stlik jamiyati o'z oldiga bir qator vazifalarni belgilab oldi. Jumladan, xalqaro, ilmiy va madaniy hamkorlik masalalari bo'yicha doimiy axborot almashinuvini amalga oshirishda davlat tashkilotlari va boshqalar bilan hamkorlik qilish; hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish; O'zbekiston Respublikasi to'g'risida axborot-ma'lumot fondlari va ma'lumotlar bazasini yaratish, yevropa xalqlari madaniyat, san'at, ilm va maorif sohalarida O'zbekiston erishgan yutuqlar bilan tanishtirish; badiiy jamoalarning va yakka ijrochilarining chiqishini, tele va kino ko'rsatuvlarni, tasviriy san'at asarlari va xalq ijodi mahsulotlari ko'rgazmalarini, fotoko'rgazmalarni, O'zbekiston Respublikasi va Ispaniya davlatiga bag'ishlangan tadbirlar kompleksilarini belgilangan tartibda uyuştirish; respublikamizda istiqomat qilayotgan Ispaniya fuqarolari hamda ularning birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish va hamkorlik qilish; hukumat va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi va Ispaniya davlatining shaharlari va hududlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish kabilarni amalga oshiradi.

2019-yil oktabr oyida Ispanyaning Toledo shahrida o'zbekistonlik fotorassom Husniddin Atoning "O'zbekiston Buyuk ipak yo'li markazida" nomli shaxsiy fotoko'rgazmasi ochildi. Kastiliya La Mancha universitetida o'tkazilgan ma'rifiy tadbir ochilishida yurtimiz tarixi, madaniyati, an'analari haqida ma'lumot berildi. Marosimda O'zbekiston Respublikasining Ispaniya Qirolligidagi elchixonasi vakili Nabijon Quvondiqov, Kastiliya La Mancha universiteti xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Fatima Gomez Guadamiyaz, Ispaniya va O'zbekiston aloqalarini rivojlantirish assotsiatsiyasi prezidenti Fernando Maragon va boshqalar so'zga chiqdi. Qayd etilishicha, o'zbek va ispan o'lkalarining ko'p asrlik aloqalari bugungi



kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu borada esa madaniy-gumanitar hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Toshkent fotosuratlar uyi hamda mamlakatimizning Ispaniyadagi elchixonasi hamkorligida tashkil etilgan ko'rgazmada muallifning o'zbek urf-odatlari, an'analari, san'ati va xalq turmush tarzi aks etgan ijodiy ishlari namoyish etdi. O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zosi, san'at sohasida xalqaro ekspert va fotorassom Husniddin Ato mamlakatimiz va xorijda o'tkazilgan ko'plab ijodiy tanlovlarda sovrindor bo'lган, shaxsiy ko'rgazmalarini o'tkazgan[5].

Olti asr muqaddam Sohibqiron Amir Temur va Kastiliya qiroli Enrike III sa'y-harakati bilan Samarcandda va Kastiliya poytaxti Segoviyada elchixonalar ta'sis etilgan. O'zaro hamkorlikning bugungi yuksak darajasiga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Qirol Xuan Karlos I o'rzasida qaror topgan alohida munosabatlar tufayli erishildi[6].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar ilk bora Amir Temur davridan boshlangan bo'lib, mustaqilligimizning ilk kunlaridan bu hamkorlik aloqalari huquqiy va o'zaro manfaatlar mushtarakligiga asoslangan holda yangi bosqichga ko'tarildi va hozirgi kungacha bu aloqalar yuksak darajada davom etib kelmoqda. Xususan, joriy yilning 25-avgust kuni Ispaniyada festival tashkil qilindi. Bu festivalda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan madaniyat sohasi vakillari ishtiroy etishdi. Festival doirasida, madaniyat kunlari tashkil etilib, O'zbekiston milliy raqslari, milliy qo'shiqlari ijro etildi. Bu o'z navbatida ispanlarning O'zbekiston madaniyatiga qiziqishlarini yanada ortishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. Izzatova.A.U.(2021) "O'zbekiston Respublikasining Ispaniya qirolligi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari (1991-2020 y) mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. bet-4.

[2]. O'z MDA. Fond. M -7, ro'yxat - 1, jild - 332.

[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati 03.07.2009. www.pm.gov.uz.

[4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida xorijiy mamlakarlatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi. Lex.uz.

[5].[http://xabar.uz/uz/madaniyat/ispaniyada-ozbek-fotorassomining shaxsiy ko'rgazmasi ochildi](http://xabar.uz/uz/madaniyat/ispaniyada-ozbek-fotorassomining-shaxsiy-ko'rgazmasi-ochildi).

[6]. Izzatova.A.U.(2021) Марказий Осиё давлатчилиги тарихида Амир Темур шахсига муносабат (испан манбалари асосида). Марказий Осиё тарихи: янги илмий тадқиқотлар ва ёндашувлар Ҳалқаро илмий конференция материаллари. Тошкент. Bet-206.



Rezyume

Mazkur maqolada O'zbekiston va Ispaniya bilan madaniy sohalardagi aloqalarining o'rnatilishi, rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati haqidagi fikr mulohazalar o'rin olgan.

Resume

This article discusses the development of relations between Uzbekistan and Spain in the cultural sphere and their current importance.